

**“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati**  
**Komplayens xizmati tomonidan 2026-yil I-choragi davomida**  
**komplayens va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash**  
**yo‘nalishida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida**

**H I S O B O T**

“Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida komplayens va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash “NKMK” AJda har yili amalga oshiriladi.

Hususan, 2022-yilda o‘tkazilgan baholashda **19 ta yuqori** va **57 ta o‘rta**, 2023-yilda **3 ta yuqori** va **45 ta o‘rta**, 2024-yilda **1 ta yuqori** va **19 ta o‘rta** hamda 2025-yilda **2 ta yuqori** va **34 ta o‘rta** xavf-xatari mavjud bo‘lgan funksiyalar aniqlanib, ushbu xavf-xatarlarni minimallashtirish hamda korrupsiyani oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlangan va amaliyotga joriy qilingan.

Masalan, “NKMK” AJning 2025-yilda Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash tadbiri o‘tkazilgan. Baholash natijalariga ko‘ra, Jamiyatda mavjud jami **1 400 ta** funksiyalarning **2 tasi** “yuqori”, **34 tasi** “o‘rta” va **1 364 tasi** “past” darajadagi xavf-xatarlar baholanib, ularni oldini olish va bartaraf etish yuzasidan 2026-yil 4-martda **29** banddan iborat komplayens va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturi, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarning umumlashtirilgan Xaritasi va korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan lavozimlar ro‘yxati shakllantirib, tasdiqlangan.

2026-yil 31-mart holatiga Dasturning **3 ta** bandi ijrosi to‘liq ta‘minlanib, **11 ta** band ijrosi qisman ta‘minlangan va qolgan **26 ta** bandlar ijrosi davom etmoqda.

Shu bilan birga, oldingi yillarda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash tadbirlarida aniqlangan xavflarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturilari ijrosi doirasida ham bir qator ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, 2026-yil 4-mart kuni tasdiqlangan komplayens va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish, kelgusida oldini olish va korrupsiyaga qarshi kurashish Dasturining 3-bandida Loyiha ofisining yillik rejasini ishlab chiqish, tasdiqlash, belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish belgilangan.

Dastur ijrosi yuzasidan 2026-yil 28-mart kuni 2026-2027-yillarga mo‘ljallangan Loyiha ofisining ish rejasini tasdiqlandi.

Yuqoridagi Dasturining 4-bandi ijrosi yuzasidan Jamiyatning 2026-yil 2-apreldagi 263-sonli buyrug'i bilan 2026-2027-yillarga mo'ljallangan kommunikatsiya strategiyasini (PR strategiya) hamda Kommunikatsiya (PR) strategiyasida belgilangan yunalishlarni samarali amalga oshirish maqsadida ishlab chiqilgan chora-tabirlar rejasi ishlab chiqilib, tasdiqlangan.

Shu bilan bir qatorda, Dasturining 29-bandi ijrosi yuzasidan Jamiyat Komplayens siyosati loyihasi ishlab chiqilib, ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun 2026-yil 11-mart kuni Kuzatuv kengashiga yuborildi.

Bundan tashqari, Komplayens xizmat tomonidan Jamiyat Markaziy apparati va tarkibiy bo'linmalarining jami **1 893 ta** (*1 630 ta buyruq va 263 ta farmoyish*) ichki idoraviy hujjatlar loyihalari korrupsiyaga qarshi huquqiy ekspertizadan o'tkazildi. Korrupsiyaviy ekspertiza natijasida **101 ta** ichki idoraviy hujjatlar loyihalari normativ-huquqiy yoki ichki idoraviy hujjatlar talablariga muvofiqlashtirildi.

*7-aprel 2026-yil*